



UDK:82(13).070

Diyoira PARDAYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti
E-mail: xudoyberdiyeva2000@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, professor S.Zokirova taqrizi asosida

SIMILARITIES AND DIFFERENCES IN THE EXPRESSION OF THE OPTATIVE CATEGORY IN UZBEK AND ENGLISH (BASED ON THE SHORT STORIES OF O. HENRY AND A. QAHHOR)

Annotation

This article presents a comparative analysis of the expression of the optative category in Uzbek and English. The relevance of the study is explained by the central role of modality in linguistics and its practical applications. As research material, the short stories of O. Henry and A. Qahhor were selected, and the linguistic units within them were examined from both semantic and pragmatic perspectives. Using a comparative-analytical methodology, the study identified both similarities and differences between the two languages. Specifically, in Uzbek, optativity is expressed mainly through morphological markers and special lexical means, whereas in English it is realized primarily by means of modal verbs and syntactic constructions. The scientific significance of the research lies in enriching linguistic theory with new insights into the category of optativity, while its practical value consists in providing opportunities for the effective application of comparative grammatical analysis in foreign language teaching.

Key words: Optativity, modality, morphological marker, lexical unit, modal verb, syntactic construction, comparative analysis, O. Henry, A. Qahhor.

СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ В ВЫРАЖЕНИИ КАТЕГОРИИ ОПТАТИВА В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ О. ГЕНРИ И А. КАХХАРА)

Аннотация

В данной статье проведён сравнительный анализ особенностей выражения категории оптативности в узбекском и английском языках. Актуальность исследования объясняется важной ролью модальности в лингвистике и её практическим применением. В качестве материала были выбраны рассказы О. Генри и А. Каххара, в которых языковые единицы подверглись семантическому и прагматическому анализу. На основе сравнительно-аналитической методологии выявлены общие и различающиеся черты двух языков. В частности, в узбекском языке оптативность выражается при помощи морфологических показателей и специальных лексических средств, тогда как в английском языке она преимущественно реализуется через модальные глаголы и синтаксические конструкции. Научная значимость работы заключается в расширении теоретических представлений о категории оптативности в лингвистике, а практическая ценность состоит в создании возможностей для эффективного применения сравнительного грамматического анализа при обучении иностранным языкам.

Ключевые слова: Оптативность, модальность, морфологический показатель, лексическая единица, модальный глагол, синтаксическая конструкция, сравнительный анализ, О. Генри, А. Каххар.

OPTATIVLIK KATEGORIYASINING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IFODALANISHINING O'XSHASH VA FARQLI TOMONLARI (O. XENRI VA A. QAHHOR HIKOYALARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida optativlik kategoriyasining ifodalanish xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotning dolzarbligi tilshunoslikda modal kategoriyaning o'rni va uning amaliy qo'llanishi bilan izohlanadi. Manba sifatida O. Genri va A. Qahhor hikoyalari tanlanib, ular asosida til birliklari semantik va pragmatik nuqtai nazardan o'rganildi. Qiyosiy-tahliliy metodologiya asosida olib borilgan izlanishlar ikki til orasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash imkonini berdi. Xususan, o'zbek tilida optativlik asosan morfologik ko'rsatkichlar va maxsus leksik vositalar orqali ifodalansa, ingliz tilida u ko'proq modal fe'llar hamda sintaktik konstruksiyalar yordamida namoyon bo'lishi kuzatildi. Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati - optativlik kategoriyasini qiyosiy tahlil qilish orqali tilshunoslik nazariyasini yangi ma'lumotlar bilan boyitishdir. Uning amaliy ahamiyati esa xorijiy tillarni o'qitishda qiyosiy grammatik yondashuvni samarali qo'llash imkoniyatini yaratishdan iborat.

Kalit so'zlar: Optativlik, modallik, morfologik ko'rsatkich, leksik vosita, modal fe'l, sintaktik konstruksiya, qiyosiy tahlil, O. Genri, A. Qahhor.

Kirish. Har bir tilning grammatik tizimida modallik alohida o'rin tutadi. Modallik orqali so'zlovchi shaxsning voqelikka munosabati, uning orzu-umidlari, niyat va intilishlari ifodalanadi. Modallikning turli ko'rinishlari ichida optativlik kategoriyasi til tizimida orzu, tilak, duo va istak kabi ma'nolarni ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi [1]. Bu kategoriya nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yoshlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish, har bir fuqaroning bilim olish va ilmiy izlanishga bo'lgan intilishini qo'llab-quvvatlash – davlat siyosati darajasidagi vazifadir" [2]. Ushbu fikr tilshunoslikda ham yangi ilmiy izlanishlarni amalga oshirish, milliy til imkoniyatlarini chuqur o'rganish zarurligini

ko'rsatadi. Xususan, grammatik kategoriyalarni qiyosiy tadqiq qilish orqali turli tillardagi umumiylik va o'ziga xosliklarni ochib berish nafaqat lingvistika, balki madaniy muloqot sohasi uchun ham dolzarbdir. Shu nuqtai nazardan, optativlik kategoriyasining o'zbek va ingliz tillarida ifodalanishini O. Genri va A. Qahhor hikoyalari misolida o'rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki bu ikki yozuvchi ijodida hayotiy voqealar, inson orzulari va tugalmagan tilaklar markaziy mavqega ega. Optativlik shakllari ularning asarlarida nafaqat grammatik vosita sifatida, balki qahramonlarning ruhiy holati va muallifning estetik munosabatini ifodalovchi muhim unsur sifatida namoyon bo'ladi [3].

Tadqiqot muammosi – o'zbek va ingliz tillarida optativlik qanday ifodalanishini, ularning umumiy va farqli jihatlarni aniqlash. Tadqiqot maqsadi – O. Genri va A. Qahhor hikoyalari misolida ikki til optativlik vositalarini qiyosiy tahlil qilish. Tadqiqot vazifalari: optativlik kategoriyasi bo'yicha nazariy manbalarni o'rganish; ikki til doirasida optativlikning morfologik va sintaktik ifoda vositalarini aniqlash; yozuvchilar asarlaridan misollar asosida qiyosiy tahlil olib borish; optativlikning til va madaniyat aloqalaridagi rolini ochib berish. Tadqiqotning dolzarbligi – globallashtirish jarayonida tillar va madaniyatlarning qiyosiy o'rganilishi, xususan, milliy va xorijiy adabiyotdagi grammatik kategoriyalarni tahlil qilish orqali tilshunoslikning nazariy va amaliy asoslarini boyitishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Optativlik kategoriyasi lingvistika doirasida modallik tizimining muhim bo'g'ini hisoblanadi. U til orqali istak, orzu, duo kabi ma'nolarni ifodalashda turli grammatik va leksik vositalar orqali namoyon bo'ladi [7]. Shu bois, bu kategoriya ko'plab tillarda alohida ilmiy tadqiq etib kelinmoqda. O'zbek tilshunosligida ham optativlik masalasi turli olimlar tomonidan yoritilgan. Masalan, M. Jo'raev "O'zbek tilida fe'l kategoriyalari" asarida optativlikning grammatik ko'rsatkichlarini qayd etib, ularning amaliy qo'llanishiga e'tibor qaratgan [3]. Shuningdek, D. Nazarova o'zining "O'zbek tilida ekspressivlik vositalari" asarida istak va tilak ma'nolarini ifodalovchi leksik vositalarning xalq og'zaki ijodi va adabiyotdagi o'rni alohida to'xtalgan [6].

Ingliz tilshunosligida ham modallik keng ko'lamda tadqiq qilingan. Masalan, J. Lyons "Semantics" asarida modallikni semantik maydon sifatida izohlab, istak va orzu ma'nolarining o'zaro aloqador jihatlarni ko'rsatib o'tadi [8]. Shuningdek, F. R. Palmerning "Mood and Modality" asarida ingliz tilida optativlikning ifodalanishi chuqur tahlil qilingan. Unga ko'ra, "Long live the King!", "God bless you!" kabi sintaktik tuzilmalar hamda may, might, should kabi modal fe'llar optativ ma'no berishda yetakchi vositalardir [4].

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz tillarida optativlik umumiy semantik xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ifoda vositalarida sezilarli tafovut mavjud. O'zbek tilida optativ ma'no asosan morfologik qo'shimchalar va maxsus leksik birliklar yordamida, ingliz tilida esa ko'proq modal fe'llar va sintaktik modellardan foydalanish orqali namoyon bo'ladi [5]. Shu bilan birga, Prezident Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Har bir xalqning ma'naviy qiyofasini to'la anglash uchun uning tili, adabiyoti va folklorini chuqur o'rganish zarur" [10]. Bu fikr qiyosiy tadqiqotlarning nafaqat lingvistik, balki madaniy ahamiyatini ham ko'rsatadi. Demak, mavjud ilmiy adabiyotlarda optativlik haqidagi nazariy qarashlar anchagina rivojlangan bo'lsa-da, o'zbek va ingliz tillarida uning badiiy matnlardagi ifodalanishi, ayniqsa O. Genri va A. Qahhor hikoyalari asosida, yetarli darajada qiyosiy

o'rganilmagan. Mazkur tadqiqot ana shu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi har qanday ilmiy izlanishning eng muhim tarkibiy qismidir. U izlanishning umumiy yo'nalishini, maqsadga erishish yo'llarini hamda kutilayotgan natijaga olib boruvchi mantiqiy bosqichlarni belgilab beradi [6]. Ushbu maqolada tadqiqot jarayoni deduktiv yondashuv asosida tashkil etildi: avvalo umumiy nazariy qarashlar o'rganildi, so'ngra ular asosida konkret badiiy matn tahliliga o'tildi. Muammoni yechishda qiyosiy-analitik dizayn tanlandi. Bu yondashuv ikki til – o'zbek va ingliz tillarida optativlik kategoriyasini o'rganishda nazariy bilimlarni amaliy matn bilan uyg'un holda tahlil qilish imkonini beradi [7]. Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek va ingliz tillari tanlandi, predmeti esa O. Genri va A. Qahhor hikoyalari optativlikning ifodalanishidir.

Tanlov (sampling) uchun O. Genridan "The Gift of the Magi" va "The Last Leaf", A. Qahhordan esa "Sinchalak" hamda "O'g'ri" kabi mashhur hikoyalar tanlab olindi. Bu asarlarda orzu, istak va tilak ma'nolari yorqin namoyon bo'lgani sababli ular tadqiqot uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi [9].

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

- Qiyosiy-analitik usul – ikki til doirasida grammatik va leksik vositalarni solishtirish;
- Semantik tahlil – optativlik ma'nolarining lug'aviy va matn darajasida ifodalanishini ochib berish;
- Pragmatik tahlil – optativlik vositalarining qahramon nutqida qanday vazifa bajarishini aniqlash;
- Kontent-tahlil – hikoyalarda uchraydigan optativlik vositalarini statistik umumlashtirish [5].

Metod sifatida, asosan, case-study yondashuvi qo'llanildi, ya'ni ma'lum yozuvchilar asarlari misolida tilning bitta grammatik kategoriyasining namoyon bo'lish xususiyatlari tahlil qilindi. Shu bilan birga, qisman arxiv tadqiqoti – mavjud adabiyotlar sharhi va nazariy manbalarni tahlil qilish ham amalga oshirildi [12].

Tadqiqot davomida barcha manbalarga aniq havola berish, mualliflik huquqini hurmat qilish hamda turli tillardagi matnlarni to'g'ri tarjima va qiyosiy tahlil asosida o'rganish tamoyiliga qat'iy rioya qilindi [4]. Shu tarzda tuzilgan metodologiya umumiy nazariy asoslardan boshlab individual matn tahliliga qadam-baqadam o'tish orqali qo'yilgan muammoni aniq yechim bilan yoritishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida O. Genri va A. Qahhor hikoyalari asosida o'zbek va ingliz tillarida optativlik kategoriyasining namoyon bo'lish shakllari o'rganildi. Har ikki yozuvchi asarlarida orzu, istak, niyat va duo mazmunidagi gaplar alohida uslubiy vazifa bajarishi aniqlanadi. Masalan, ingliz tilida "May you be happy!" kabi ifodalar qo'llanadi, o'zbek tilida esa "Shod bo'lg'in!", "Baxtli bo'lg'in!" kabi shakllar ishlatiladi. Ushbu o'xshashliklar inson tafakkuridagi umumiy ehtiyoj – orzu va tilakni ifoda etishga bog'liq ekani ma'lum bo'ldi [6]. Bundan tashqari, o'zbek tilida optativlik ko'proq milliy-madaniy an'analar bilan chambarchas bog'langan holda qo'llanadi. Masalan, "Yoshing uzun bo'lsin!", "Rizqing ziyoda bo'lsin!" kabi duo-tilaklar keng tarqalgan. Ingliz tilida esa mazkur ma'nolar asosan umumiy tabrik va tilak shaklida ifodalanadi: "May you live long!", "May fortune smile upon you!".

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilida optativlik ko'proq modal fe'llar (may, might, should) orqali namoyon bo'ladi, o'zbek tilida esa amr va shart shakllari vositasida yanada kuchli ifodalanadi [7]. Ushbu farqlar tillarning morfologik tizimidan kelib chiqadi.

Jadval 1da o'zbek va ingliz tillarida optativlikning asosiy ifoda vositalari taqqoslab ko'rsatilgan.

--	--	--	--	--

Yozuvchi	Jami misol	Leksik (so'z bilan)	Grammatik (fe'l shakli)	Pragmatik (nutq vazifasi)
O. Henry	65	25 (38%)	30 (46%)	16%
Qahhor	55	28 (51%)	20 (36%)	7 (13%)

Jadval 1. O'zbek va ingliz tillarida optativlik vositalari

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikkala tilda ham optativlik nafaqat grammatik, balki uslubiy vosita sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. O. Genri hikoyalarda optativlik personajlar o'rtasidagi muloqotni yumshoq va samimiy tusda ifodalashga xizmat qilsa, A. Qahhor asarlarida esa orzu-istak mazmunlari milliy qadriyatlar va an'anaviy dunyoqarash bilan uyg'un holda qo'llanadi. Shunday qilib, tillar o'rtasidagi o'xshashliklar inson ehtiyojlari va hissiyotlarining umumiy, umumbashariy xususiyatini ko'rsatadi. Farqlar esa har bir tilning ichki tizimi hamda u shakllangan madaniy muhit bilan belgilanadi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqotda o'zbek va ingliz tillarida optativlik kategoriyasining namoyon bo'lish shakllari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, har ikki tilda

ham orzu, istak va niyat kabi ma'nolar maxsus morfologik, leksik va sintaktik vositalar orqali ifoda etiladi. Ingliz tilida optativlik asosan modal fe'llar (may, might, should) hamda subjunktiv konstruksiyalar orqali namoyon bo'lsa, o'zbek tilida esa amr va shart mayli shakllari asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Optativlikning namoyon bo'lish shakllarini o'zbek va ingliz tillari adabiy asarlarida yanada kengroq material asosida o'rganish maqsadga muvofiq. Bu sohadagi tahlillar kelgusida tarjima nazariyasi bilan bog'lanib, orzu-istak ifodalarining tarjimada qanday aks etishini chuqur o'rganish zarur. Shuningdek, kelgusida kompyuter lingvistikasi imkoniyatlaridan foydalanib, optativlik ifodalarini korpus lingvistikasiga tayangan holda statistik jihatdan tahlil qilish ham dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Xodjiev A. O'zbek tilida modallik kategoriyasi. – Toshkent: Fan, 1987. – 120 b.
2. Nazarov A. O'zbek va ingliz tillarida qiyosiy grammatika. – Toshkent: Universitet, 2015. – 210 b.
3. Jo'raev M. O'zbek tilida fe'l kategoriyalari. – Toshkent: Fan, 1991. – 180 b.
4. Palmer F.R. Mood and Modality. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 223 p.
5. Radford A. Linguistics: An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 345 p.
6. Nazarova D. O'zbek tilida ekspressivlik vositalari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2017. – 156 b.
7. Safarov Sh. Semasiologiya. – Toshkent: Universitet, 2014. – 240 b.
8. Matthews P.H. The Concise Oxford Dictionary of Linguistics. – Oxford: Oxford University Press, 2005. – 410 p.
9. Trask R.L. Key Concepts in Language and Linguistics. – London: Routledge, 1999. – 356 p.
10. Xasanov B. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 200 b.
11. Espersen O. The Philosophy of Grammar. – London: Allen & Unwin, 1924. – 382 p.
12. Begmatov E. O'zbek tilining nazariy morfologiyasi. – Toshkent: Fan, 2006. – 198 b.